

Tadqiqot.uz

**ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



31 ОКТЯБР
№33

CONFERENCES.UZ

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 33-КҮП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
7-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
33-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-7**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
33-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-7**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 33-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 октябрь 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 28 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманганд мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

**ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ
ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР**

1. Махмудова Нилуфархон Тўлқинжон қизи ЎЗБЕК ТИЛИДАГИ ТЕЛЕКОММУНИКАЦИЯ ТЕРМИНЛАРИНИНГ СТРУКТУР-СЕМАНТИК ТАДҚИҚИГА ДОИР	7
2. Boymuratova Sabohat Atabayevna CHET TILI FANLARI DARSLARIDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI KENG QO'LLASH	9
3. Ibadullayev Nilufar ACTIVE TEACHING TECHNIQUES AT THE ENGLISH LESSONS	11
4. Khalmuratova Nasiba Egamberganovna THE STEAM EDUCATION SYSTEM AND ITS USING AT THE ENGLISH LESSONS	12
5. Sabina Muhammedova MAVZU VA MA'NO JIHATDAN SEVINCH CHOKUM ROMANLARINING TAHLILI	13
6. Xolmurodova Cho'lponoy Ubaydullayevna TIL TARAQQIYOTIDA TURLI OMILLARNING TA'SIRI	16
7. Zoxitova Nodira Xusan qizi BUYUK BRITANIYA INTERNET NASHRLARIDA MIGRATSİYA MAVZUSINING AKS ETISHI.....	18
8. Умида Мансурова “ҚАНОТ ЖУФТ БЎЛАДИ” ҚИССАСИДА ОИЛА ВА БУРЧ ТУШУНЧАЛАРИНИНГ РЕАЛИСТИК ТАЛҚИНИ	20
9. Miraxmedova Nargiza ONA TILI DARSLARIDA PSIXOLOGIK JARAYONLAR	23
10. Nuraliyeva Nodira Aminjonovna HUJJATLARNI DAVLAT TILIDA YURITISH MAMLAKAT TARAQQIYOTI GAROVI	25
11. Akbarov Akbarali, Qosimova S.S SIYOSIY-IJTIMOIY TERMINLARNING ARAB GAZETALARIDA FE'L SIFATIDA UCHRASHI	26



ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

ЎЗБЕК ТИЛИДАГИ ТЕЛЕКОММУНИКАЦИЯ ТЕРМИНЛАРИНИНГ СТРУКТУР- СЕМАНТИК ТАДҚИҚИГА ДОИР

Махмудова Нилуфархон Тўлқинжон қизи,
Қўқон давлат педагогика институти таянч докторанти
(maxmudovanilufar722@gmail.com +998903069775)

Аннотация: Маколада ўзбек тилидаги телекоммуникация терминларининг систем-структур тилшунослик методлари асосидаги майдон назарияси хусусиятларини ўзида акс эттириш масалалари ёритилган. Соҳа терминларининг умумлаштирувчи белгилари, очиқлиқ, бўлинувчанлик, иерархиклик хусусиятлари асосида семантик майдонга бирлашуви ҳақида сўз боради.

Таянч сўз ва иборалар: термин, телекоммуникация терминлари, систем-структур тилшунослик, майдон назарияси, семантик майдон хусусиятлари.

Тилни система сифатида ўрганиш ҳақидағи қараашлар ўзбек тилшунослигида қўпгина янги тадқиқотларни яратилишига асос бўлди. Систем-структур методларнинг кириб келиши ўзбек тили лексикасини ҳам семантик майдон асосида ўзганишга олиб келди. Буни сўнгги йилларда олиб борилган ишлар мисолида кўришимиз мумкин. Мазкур йўналишда тадқиқ этилган ишларни А.Собиров қўйдаги уч гурӯхга бўлади:

“1. Систем тилшунослик ва систем лексикологиянинг умумий назарий масалаларига бағишлиланган илмий-тадқиқот ишлари. 2. Сўзларнинг шакл ва маъно муносабатларини тадқиқ қилиш асосида лугатлар ва глоссарийлар яратиш бўйича бажарилган ишлар. 3. Семантик майдон назарияси асосида соҳалараро олиб борилган алоҳида илмий-тадқиқот ишлари.”¹

Даставвал физика фанида термин сифатида қўллана бошланган “майдон” тушунчаси кейинчалик аниқ фанлардан ташқари табиий ва ижтимоий фанларга ҳам кириб келди. Тилшуносликда семантик майдон назариясига асосланганда, тушунчанинг оламнинг лисоний манзарасидаги ақлий билишнинг аҳамияти, яъни мантиқий категорияяга таянилади. Кейинги хусусият эса, инсон онгидаги сезги ва тасаввурдан ҳосил бўлган образ ёрдамида оламни билишдан ва уларни қиёслаш орқали англашдан иборат.

Ўзбектилшунослигида XXасрнинг 70-80йилларидан бошлаб олиб борилган тадқиқотларда система ва майдон талқинлари юзага келди. Ш.Рахматуллаев, Э.Бегматов, И.Кўчкартоев, Х.Неъматов, Р.Раъсулов, Н.Махмудов, О.Бозоров, Ш.Искандарова, Р.Сафарова, А.Собиров, С.Муҳаммедова илмий кузатишлари шулар жумласидандир.

“Систем лексикологияда ҳар бир соҳа (касб-хунар, маросим, урф-одат, киши номлари, жой номлари, илмий атамалар) алоҳида алоҳида аталган лугавий тизимлар сифатида ўрганилади. Ҳар бир соҳанинг ўзида ўз лексемалари, синонимик ва антонимик қаторлари, лексемаларнинг мазмуний гурӯхлари, лексемаларнинг мавзу тўдалари ва майдонларига ажратилади. Уларнинг ҳар бирига алоҳида, нисбатан мустақил тизимлар сифатида қаралади.”²

Демак, бошқа систем лексикология соҳалари қаторида телекоммуникация терминлари ҳам алоҳида семантик майдон бўла олади. Ушбу семантик майдон тўғрисида қўйидагиларни таъкидлаш мумкин:

¹ Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатхини Система сифатида тадқиқ этиш: Филол. фанлари док...дисс. автореф.—Тошкент, 2005.-526.

² Неъматов X., Раъсулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари.—Тошкент:Ўқитувчи, 1995. —Б.82.



1. Телекоммуникация терминларини бир қанча соҳаларга ажратиш мумкин (телефон, телеграф, радиоалоқа, телевидение, компьютер тармоқлари), лекин уларнинг барчаси бир умумийлик маълумот алмашинув жараёни билан боғлиқ.

2. Соҳа терминлари семантик майдонида ав рва техника тараққиёти билан чамбарчас боғлиқлиги учун янги терминларни тез қабул қилувчи очиқлик белгиси мавжуд. Масалан, "Ўзбекистон миллий **mass-медиани** ривожлантириш ва қўллаб-кувватлаш жамоат фонди"

3. Телекоммуникация терминлари ўзаро иерархик муносабатда бўлади. Масалан, истеъмолчига етказиш учун мўлжалланган исталган кўринишдаги матн, тасвир ёки овоз маълумот ҳисобланади. Уни етказиш жараёнига алоқа деб қарасак, истеъмолчига маълумотни элитувчи сигнал, яъни ахборот ташувчи тўлқин қуидагича жараённи босиб ўтади: "узатувчи пунктлардаги бундай тизимларда ахборот манбаларидан ҳосил бўлган сигналлар, электр сигналларига ўзгартирилади, қабул қилувчи пунктда эса талабгорлар қабул қила оладиган электрик сигналларга ўзгартирилади."¹

4. Телекоммуникация терминлари семантик майдони бир қатор мавзувий гуруҳларга, ўз ичида лексик-семантик қаторларга ажralиши, яъни бўлинувчанлик имкониятига эга. Жумладан, "Узатиш линияси симли ёки радиолинияли бўлиши мумкин. Симли узатиш линияси деб, электромагнит сигналларни узлуксиз йўналтирувчи мухит бўйлаб тарқалишини таъминловчи линияга айтилади. Симли узатиш линиясига ҳаво алоқа линиялари, электр кабелли линиялар, тўлқин ўтказгичлар ва бошқалар киради."²

Шундай қилиб, телекоммуникация терминлари бугунгача қўп бўлмаса-да, маълум тарихий тараққиётни босиб ўтди. Сифат ва миқдор жиҳатдан ўзгариб турадиган доимий янгиланишлар эса, тилда акс этиб бораверади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Исаев Р.И. ва бошқалар. Телекоммуникация узатиш тизимлари. —Тошкент, 2011.
2. Неъматов X., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари.— Тошкент:Ўқитувчи,1995.
3. Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини Система сифатида тадқиқ этиш: Филол. фанлари док...дисс.автореф.—Тошкент, 2005.

¹ Исаев Р.И. ва бошқалар. Телекоммуникация узатиш тизимлари. —Тошкент, 2011.

² Ўша манба. —Тошкент, 2011.-Б.10.



**CHET TILI FANLARI DARSALARIDA ZAMONAVIY AXBOROT
TEXNOLOGIYALARINI KENG QO'LLASH**

Boymuratova Sabohat Atabayevna

Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumani 35- son

maktabi nemis tili fani o'qituvchisi

Tel + 99-893-280-17-12

sabohatboymuratova@gmail.com

Annotatsiya: Chet tili fanlari darslarida zamonaviy axborot texnologiyalarini keng qo'llash, so'zlashish mahoratini oshirish, chet tili o'qitishning rivojlantiruvchi maqsadi to'g'risida fikr mulohazalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Chet tili fanlari, zamonaviy axborot texnologiyalar, xorijiy tillar, AKT, interfaol metodlar, ta'lim jarayoni.

Biror bir xorijiy tilni o'rganish o'ta murakkab jarayon bo'lib, bunda til o'rganuvchilardan diqqatni jamlash talab qilinadi. Hozirgi texnologiya rivojlangan bir davrda o'quvchilar AKT dan foydalanib o'tilgan darslarda diqqatli o'tiradilar. Xorijiy til o'rganuvshilarning diqqatini bir joyga jamlashda chet tili darslarini til o'rganish o'yinlarga va uslublarga asoslanib tashkil qilinishi talim jarayoni samaradorligini oshiruvchi omillardan biri deb hisoblayman. Hozirgi kunda chet tili fanini bolalarga o'rgatishda darsda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish juda muhimdir. Bundan ko'rinish turibdiki, chet tilidan dars beradigan har bir o'qituvchi zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalana olishi lozim. Tan olamizki ayrim o'qituvchilar komputerdan, axborot vositalaridan foydalana olishmaydi. Endi faqat darslik yoki 1 yoki 2 tarqatma bilan tashkil qilingan dars o'quvchilarni jalb qila olmaydi.

Radio, televizor, qo'l telefoni, internetdagi 100 lab ijtimoiy tarmoqlardan eng so'ngi ongni jalb qiluvchi usullarda axborot olayotgan o'quvchi oddiy usuldagi darsga nari borsa 15 daqiqa qulq solishi mumkin, keyin esa uning qiziqishi qaytib, e'tibori bo'linadi va mavzuni tushina olmaydi. Aynan shuning uchun ham darslarda axborot texnologiyalaridan foydalanish bugunning asosiy talablaridan biridir.

Kodoskop, proyektor, magnitafon, kompyuter, internet, interfaol doska televizor kabi texnik vositalar darsning qiziqarli tashkil etilishiga yordam beradi. Chet tillarini o'rganishda multimediyalarning ahamiyati beqiyosdir. Birinchi Prezidentimizning 2012 yil 10 dekabrdagi PQ 1875 –sonli qaroriga muvoviq "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish" dagi 12 banddan biri chet tili xonalarini zamonaviy jahon standartlari talablari asosida jihozlash bo'lib, buning ijrosi natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarimiz ular uchun oson bo'limgan chet tillarini ravon va qulay o'rganmoqdalar. To'xtovsiz yoki ko'p muddatga bir xil texnik vositadan foydalanish ham o'quvchilar me'dasiga tegib, dars samarasini pasaytiradi va elektr energiyaning isrof bo'lishiga olib keladi. Qaysi texnik vositani darsning qaysi qismida, qanday topshiriq uchun qo'llash lozimligini o'qituvchi darsga tayyorlanish jarayonida belgilab olishi, foydalanish vaqt 3-7 daqiqa atrofida bo'lishiga, zarur material undan uzoq vaqtga mo'ljalangan bo'lsa, orada uzilish qilib, unga doir qiziqarli savol-javob, munozara o'tkazib olish zarur. Qanday holatlarda nimalar taklif qilinadi?

1. Chet tilida lug'atlarning talaffuzi, mazmuni o'rganiladi. So'zning ma'nosini anglarishda visual texnik qo'llanmalar ancha mavzuga mos kichik filmlar tomoshasi, uning muhokamasi ayniqsa ahamiyatlidir.

2. Talaffuzni o'rgatganda ko'proq tinglab tushinish vositalaridan foydalangan ma'qul.

3. Grammatik mavzularni tushintirishda vaziyatlar ko'rstilgan sahnalar, kichik jadval, sxema yoki nuqtalar o'rnnini to'ldiradigan mashqlar projector orqali ko'rsatilib, har bir o'quvchining qatnashishi ta'minlansa, unum yaxshi bo'ladi.

4. Mustahkamlashda diologli, monologli yoki harakatli videolar foydalidir.

5. Qo'shiq o'rganishda tinglab yoki ham ko'rib, ham tinglab birgalikda kuylash, so'ng matn yordamida uyda takrorlash tez yodlash usullaridan biridir.

6. Takrorlash darslarida mavzuga mos kichik filmlar tomoshasi, uning muhokamasi o'quvchilarning chet tilini barcha nutq faoliyatlarini bog'lagan holda tushinishlari, o'z fikrini bayon qila olishlari uchun ahamiyatlidir.



7. Uyga vazifa bajarish o'quvchilarning hammasiga ham yoqavermaydigan, zerikarli ish. Bunda fanga kamroq qiziquvchilarni ham jalb etish uchun o'tilgan mavzuga komputerda slayd yaratish, internetdan ma'lumot topish, rasm chizish va taqdim qilish kabi topshiriqlar ularning uy ishi bajarishiga yordam beradi.

8. "Mening ovozim", "Mening videom" kabi loyihalarni har qanday mavzuda qo'l telefonlari, magnitafon yoki kompyuter yordamida amalga oshirish mumkin, bu jarayonda o'quvchi sinf va o'qutuvchisi oldida taqdim qilishdan oldin o'z ishini tekshiradi, tahlil qiladi, xatolarini tuzatishga harakat qiladi va mukammallikka intiladi.

O'quvchilarni to'g'ri talaffuzga o'rgatishda barcha chet tili o'qituvchilariga lingofonlar o'rnatilgan xona kerak. Umid qilamanki, 2 yoki 3 yil ichida Respublikamizdagi barcha chet tili xonalari lingofonlar va interaktiv doskalar bilan ta'minlanib qolar.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yhati:

1. Xorijiy tillarni o'rgatishda rol o'ynash o'yinlari. 1989
2. R.Shodiyev. H. I.A. Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida.
3. "Xalq ta'limi" 2018. Xalq ta'lif 2014. "ilmiy metodik jurnal".



ACTIVE TEACHING TECHNIQUES AT THE ENGLISH LESSONS

Ibadullayev Nilufar

No 17 comprehensive school of
Yangibazar district, Khorezm region
Teacher of an English Language
e-mail: nasiba.xalmuratova@gmail.com

Annotation: This thesis focuses on the use of active teaching technologies and methods and how to achieve more goals at the English lessons in secondary schools .

Keywords: active teaching techniques, innovative, positive, creative, effective, memory, method, education, technology.

The national education project shows the need to improve the organization of the educational process, the introduction of the new technologies and methods and techniques of teaching , to increase the interest of schoolchildren in learning in order to achieve the set goals. The formation of universal educational activity is the main task of education. The student should be encouraged to continue studying throughout life. Active teaching techniques can help the teachers in this.

Active methods can not only help to motivate students to think actively and practically, but also help to form positive teaching motivation, reveal and creative abilities.

“Carousel” (“Merry Go Round”). This technique allows the use of imaginative thinking memory. The first student takes a card from the teacher and names the associations with that word. The card is passed along the chain until it is returned to the teacher. Each student has the opportunity to express their ideas and opinion quickly.

The question (“Question Time”) is used at different stages of the session. It is easier for the student to respond to a classmate than for a teacher and the fear of rigidity and error disappears. The technique is effective in working with “weak” students, allowing them to reinforce the studied material and identify gaps in each students.

“Surprise” is a style designed to enhance mental activity and engage interest in a lesson topic and forms the ability to analyze, separate and shape conflict. The teacher finds a point of view that even well-known facts remain a mystery.

Puzzle Time. There are many differences in this methodology that are successfully applied at different stages of the lesson.

For example:

FIND WORDS between a set of letters on a specific topic.

ADD WORDS. The words are given, but the letters are omitted.

CROSSWORD. Students solve crossword by answering questions.

Fill in the blanks. This style helps students to summarize the lesson, focusing on the main issues of the day. The teacher prepares the beginning of the sentences in advance, for example: Today I learned ... I understood ... I succeed ... I wanted ... He taught me for life ...

These methods and technologies not only increase the learning activity of students, activate passive students, but also give an opportunity to express their personal views on the subject problems freely, to listen to partners, to enrich ideas further. They allow them work in a small groups and teams and create an atmosphere of teamwork as well as competition among students in the classroom.

References:

1. <http://library.ziyonet.uz>
2. <http://nambilog.zn.uz/files/STEAM-ta'limi>



THE STEAM EDUCATION SYSTEM AND ITS USING AT THE ENGLISH LESSONS

Khalmuratova Nasiba Egamberganovna

No 17 comprehensive school of Yangibazar district, Khorezm region

Teacher of an English Language

e-mail: nasiba.xalmuratova@gmail.com

Annotation: This thesis focuses on what the STEAM education system means and how it affects the foreign language teaching process in secondary schools

Keywords: STEAM, innovative, modern, engineering, theory, practice, science, consequence, integration, education, technology.

If we spread this abbreviation, we get: STEAM is - S - Science, T - Technology, E - Engineering, A - Art and M - Math. In English, it is science, technology, engineering, art, and math. Keep in mind that these trends are becoming the most popular in the modern world. That is why today the STEAM system is evolving as one of the main trends. STEAM is based on the direction of education and the application of a practical approach, as well as the integration of all five areas into a single education system.

In a STEAM learning environment, children acquire knowledge and immediately learn to use it. Therefore, as they grow older and face life challenges, they understand that such complex issues can only be solved by relying on knowledge in different fields and working together. It is not enough to rely on knowledge on just one topic. By focusing on practical skills, students develop their will, creativity, flexibility and learn to collaborate with others.

This is a logical consequence of combining theory and practice. Some schools took into account the careers of graduates and decided to combine subjects such as science, technology, engineering and mathematics and STEM system formed in this way. Later Art was added here and now STEAM is formed to the end.

Teachers believe that knowledge of these topics, more specifically from these subjects, will help students become highly qualified professionals in the future. After all, children at the English lessons strive to acquire good knowledge and immediately put it into practice.

Creativity Tree. The results of this technique allow the class and each student to better understand and evaluate, and the teacher can use the materials obtained to provide a student-centered approach in preparing and conducting lessons. EXAMPLE: The rules of operation are as follows: trunk – subject(English, Maths, Art, Technology), type of activity(reading, listening, writing, speaking), branches - statements made in the direction - “yes” and “no” (the number of “branches” is not limited) and “leaves” - this is the basis of the statements.

In conclusion, we would like to emphasize that, compared to traditional teaching methods at secondary schools, the STEAM approach in high school allows children to experiment, create models, create music and films independently. Through this turn their ideas into reality.

This educational approach towards children to combine theoretical and practical skills effectively and facilitates university entry and further study.

References:

1. <https://www.integer.uz/steam>
2. <http://nambilog.zn.uz/files/STEAM-ta'limi>



MAVZU VA MA'NO JIHATDAN SEVINCH CHOKUM ROMANLARINING TAHLILI

Sabina Muhammedova

Toshkent davlat sharqshunoslik
universiteti magistranti

Annotatsiya. O'zbeklarga qardosh xalq hisoblangan Turkiya Respublikasida XX asr boshlardan zamonaviy adabiyot, adabiy hayat bor murakkabliklari bilan rivojlanib kelmoqda. Bu yerda o'z ijodi bilan tanilgan shoir va yozuvchilar sonini so'nggi yillarda salmoqli tarzda oshib borayotgani fikrimiz dalilidir. Ular orasida Sevinch Chokum o'zining takrorlanmas ijodiy asarları bilan kitobxon va ilm kishilarini o'ziga jalb etib kelmoqda. Shuning uchun ham ushbu ilmiy maqolada ma'no va mazmun jihatdan adibaning ayrim romanlari tahlili o'rinni olgan.

Tayanch so'z va iboralar: Sevinch Chokum, tarixiy roman, muammoli roman, "Tentak davrlar", "Zulmatni yoritgan oy".

Sevinch Chokum 1943-yil 25-avgust sanasida Istanbulnin Beshiktosh tumanida dunyoga keldi. Oilada kencha qiz farzand bo'lib, ilk ta'limni Beshiktosh Esma Sulton o'rtalik maktabi va litseyini bitirdi. So'ng Istanbul universiteti Turk tili va adabiyoti kafedrasida ta'lim oldi. Ajibodom xususiy Anato'li litseyida va Etfal shifoxonasiga qarashli hamshiralalar tayyorlovchi maktabda turk tili va adabiyot fanidan dars berdi¹.

Sevinch Chokum o'z ijodini kichik hikoyadan boshlagan va ijoning cho'qqisini ulkan hajmdagi romanlar bilan davom ettirayotgan adibadir. Sevinch Chokum - 1970 -yillarda hikoyalari yozib, adabiyot sahnasida o'rinni olgan. Tez orada u romanlar yozishni boshladi. 1980-yillardan keyin u tarixiy roman janrida muvaffaqiyatli asarlar beradi. 90-yillardan boshlab u turli mavzular bilan shug'ullanadi. Uning romanchilikdagi eng yuksak asarlari quyidagilardir deya olamiz: "Avgust boshog'i (Ağustos Başağı)" (1989), "Chiranishlar (Çırıntılar)" (1991), "Zulmatni yoritgan yulduz (Karanlığa Direnen Yıldız)" (1996), "Tentak davrlar (Deli Zamanlar)"² (2000). Oxirgi yillarda u birin-ketin nashr qilgan romanlari uning yuksak saviyadagi ijodkor ekanligini ko'rsatadi. Ko'p yillar davomida tarixiy mavzularga e'tibor qaratgan muallif 1990-yillardan buyon juda xilma-xil mavzularda ustalik bilan asarlar yozadi. Bu esa uning turli yo'naliishlarga va masalalarga diqqat qaratishga yetarli kuch va yetuklikka ega ekanligini ko'rsatadi.

Umuman olganda Chokumning romanlarini davr romani deb atash mumkin. U turk jamiyatining asosiy muammolarini ko'rsatadi va tahlil qiladi. Buning yechimini milliy va insoniy qadriyatlarini himoya qilish ekanini ta'kidlaydi. Muallif o'z e'tiborini turli mavzular va masalalarga qaratgan, ularga diqqatni jamlagan va chuqurlashtirgan. U har bir romanida turli olamlarni tasvirlab beradi³.

"Avgust boshog'i" romani Milliy kurash davri haqida hikoya qiluvchi tarixiy roman. Bu yerda tarixiy, milliy unsurlar va qadriyatlar qayta ishlanadi. "Chiranishlar" romanida tashqi migratsiya, o'zlik va begonalashish mavzulari qalamga olingan muammoli roman. Ushbu romanda individual, ijtimoiy va milliy qadriyatlar, o'zlik inqirozi muhokama qilinadi. "Zulmatni yoritgan yulduz" romani 27-may inqilob davrni qalamga olgan va muammoli roman. Romanning boshidan oxirigacha siyosiy muhit hukmronlik qiladi. "Tentak davrlar" romanida ijodga bo'lgan ishtiyoq va o'zlikni topishga intilish haqida hikoya qilinadigan. Asarda yosh qizning shaxsiyatining shakillanishi va uning atrofidagi voqealar individual yondoshuv bilan qalamga olinadi. Chokum o'z romanlarida hujjatlarga ko'p tayanadi va real voqealarga tayanib o'z asarini yozadi⁴. Bu uning realist yozuvchi ekanligini ko'rsatadi. Ayni paytda, u yozuvchi, aniqrog'i, ijodkor sifatida, xayolot va tasavvur kuchidan ham foydalanadi va o'z romanlarini haqiqiy voqealar va fantastik qahramonlar tasviridan foydalanib tasavvur va haqiqat sinteziga asosida yozadi. Uzoq yillar davomida ijodkor romanlarini tarixiy voqealar asosida yozadi. Lekin u "Chiranishlar" romani bilan mavzuni o'zgartirdi va shundan keyin yozgan romanlarida har doim turli mavzularga e'tibor qaratdi. Shunday ekan,

¹ <https://www.turkedebiyati.org/sevinc-cokum/>

² Sevinch Chokum asarları hali hanuz o'zbek tiliga tarjima qilinmagani uchun asar nomini to'g'ridan to'g'ri tajima qildik va keyingi o'rinnlarda ham shunday berishni afzal bildik.

³ İhsan I., "ÇOKUM, Sevinç". Türkiye Edebiyatçılar ve Kültür Adamları Ansiklopedisi. 3. Cilt (2. bas.). Ankara: Elvan Yayınları. (2007)ss. 956-958.

⁴ Ercilasun B. Sevinç Çokum ve dört romanı TÜBAR-XXVI-/2009-Güz



uning romanlari zamon, makon va o‘zi ko‘rgan muammolar jihatidan ancha keng va rang-barang deyishimiz mumkin.

Ko‘rinib turibdiki, u o‘zining so’nggi romanlarida o‘ziga xoslik, shaxsiyat va begonalashuv muammolariga e’tibor qaratgan. Bu masalalarni “Chiranishlar” romanida chuqur yoritgan yozuvchi keyingi romanlarida ham buni qisman davom ettirgan. “Chiranishlar”da begona va g‘urbat tuyg‘ular juda real tarzda berilgan.

Chokum texnikasi hozirgi yozuvchilar tez-tez ishlatib turadigan ong oqimiga asoslarga texnikadan farq qiladi. Boshqacha aytganda, uning asarlarida vaqt va makon murakkab va bir-biri bilan chambarchas bog‘liq emas. U Xolid Ziyo va Rashot Nuri qo‘llagan klassik va an’anaviy texnikani o‘zlashtirdi. Bunda turkiy millatga hos vatanparvarlikning ham hissasi bor deb o‘ylash mumkin. Voqealar ketma-ketligi, badiiyati va syujetda qorishiqlikka unchalik katta o‘rin bermaydi, xronologik tartibni kuzatadi. Shuning uchun uni neoklassik yozuvchi deb atashimiz mumkin¹.

Muallif asar yozishda turli xil usullardan foydalanadi. “Avgust boshog‘i” eski yilnomachi tuzuvchi tarixchi texnikasi va uslubini qollaydi. “Chiranishlar” romanida voqealar uchinchi shaxs tomonidan bayon qilinadi. “Zulmatni yoritgan yulduz” va “Tentak davrlar” romanlarida esa xotira uslubi ustunlik qiladi. Voqealarni bayon qilishda rivoya va ko‘proq tasvir usulidan foydalanadi.

Chokumning barcha romanlarida dramatik tuzilma ustunlik qiladi. Muallif romanlarida kutilmagan o‘limlar va kutilmagan yakunlar bilan dramatik tus oladi. Adiba romanlarining oxiri hayratlanarlidir. Bu keskinlikni oshiradigan yana bir omil. “Avgust boshog‘i” romanda Amaki aslida Yusuf bo‘lib chiqishi, “Zulmatni yoritgan yulduz” romanida sotqin aslida Sabotiy ekanligi kabi voqealar roman oxiriga ilova qilinadi va o‘quvchini hayratga soladi.

Romanlarning deyarli barchasida tasodify va kutulmagan o‘limlar kishining diqqatini chalb qiladi. Bu esa dramatic syujetning bir bo‘lagi hisoblanadi. “Avgust boshog‘i” romanida Usmon, Ilyos va Mullazim Rafiqning shahid etilshi, “Chiranishlar” romanida Oysunning avtahalokat tufayli vafot etishi, “Tentak davrlar” da Oyparining ham avtahalokat tufayli erta olamdan o‘tishi, “Zulmatni yoritgan yulduz” Boshkonsulning qatl ettirilishi yuqorida aytib o‘tganimiz dramatik voqealardir. Chokum asarlarida juda ko‘p personajlar to’plangan. Tarixiy romanlarda biz juda ko‘p obrazlarni uchratamiz. Uning so’nggi romanlarida esa qahramonlar tarkibi jihatidan ancha cheklangan. Biz ko‘rib chiqqan romanlar ichida eng kam personajga ega roman “Chiranishlar” romani hisoblanadi. “Zulmatni yoritgan yulduz” romanidagi qahramonlar jamoasi ko‘proq va gavjumroq. “Tentak davrlar” esa o‘zining personajlari soni jihatidan “Chiranishlar” va “Zulmatni yoritgan yulduz” romanlari o‘rtasidan o‘rin egallaydi.

Romannavis xarakter tahlilida juda muvaffaqiyatli. U shaxsiyatlarni ko‘radigan, tekshiradigan va sharhlaydigan diqqat va kuzatishga ega. U kishilarining ichki dunyosi bilan shug‘ullanadi, ularning his-tuyg‘ularini, fikrlarini batafsil tasvirlay oladigan yetuk va tajribali qalami bor. Romanlarda uchta avlodning mavjudligi diqqatga sazovordir. Bularni yosh, o‘rta va qari deb sanash mumkin. Nabiralar va buvilar o‘rtasida iliq va yaqin munosabat va muhabbat o‘rnatalgan. Bu yerda yoshlarning keksalarga bo‘lgan ehtiyojiga urg‘u berilgan². Bu mavzular “Chiranishlar” va “Tentak davrlar” romanlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Asarlarda go‘zallik tuyg‘usi va ehtiyoji turli yo’llar bilan ochib beriladi va ishlanadi. San’at va estetika Chokumning asosiy mavzularidan biridir. U tabiatga nazar tashlar ekan, borliqni ko‘zdan kechirar ekan, go‘zalliklar hamisha uning e’tiborini tortadi. Xuddi shunday, u inson qalbining go‘zalliklarining shaydosidir. U o‘z romanlarida tabiat va odamlarni ana shu tuyg‘ular bilan tasvirlaydi. Qolaversa, uning romanlaridagi personajlar tasviriy san’atning bir yoki bir nechta sohalari bilan albatta qiziqadi. Ular Fuzuliy, Yunus va Tanpinar she’rlarini o‘qiydilar va muhokama qiladilar. Ular she’riyat, adabiyot, haykaltaroshlik, rasm, kulolchilik va musiqa kabi turli xil san’at turlari bilan shug‘ullanadi. Yozuvchi o‘z romanlarida san’atning non va suv kabi asosiy ehtiyoj ekanligini, undan voz kecholmasligini his qiladi. Chokum tabiatga xuddi shunday go‘zallik hissi bilan qaraydi. Uning romanlari tabiat unsurlari jihatidan juda boy. Bu hikoyada go‘zallik tuyg‘usi ustunlik qiladi. Romanlarida kapalaklar, gullar, hasharotlar, bahor, kuz, qushlar batafsil, ravon tilda tasvirlangan. U tabiat, narsalar va insonning ichki dunyosi o‘rtasida yaqinlik o‘rnataadi. U tabiat tasvirlarida she’riy tus oladigan kuchli uslubga ega. Unga ko‘ra tabiatning o‘zi muhim element

¹ Şahin S. Edebiyatta “Öteki” ve Sevinç Çokum Örneği -Bizim Diyar, Hilâl Görününce, Ağustos Başağı ve Çırıntılar Romanlarında “Öteki”- Year 2011, Volume , Issue 29, 153 – 170.

² Necla D. Sevinç Çokum’un romanlarında sosyal yapı, 2012. <http://dspace2.adiyaman.edu.tr:8080/xmlui/>



hisoblanadi. Asarning roman yoki hikoya ekanligi bu haqiqatni o'zgartirmaydi.

Chokum romanlarida qiz-yigit sevgisi hukmron mavzu sifatida ko'rilmaydi. Muallif bunday sevgini birinchi darajada bo'lmasa-da, tarixiy romanlarga kiritgan. Uning so'nggi yillarda yozgan romanlarida muhabbat individual o'chovda ko'rib chiqilgan bo'lsa-da, yaxlit bir mavzu sifatida ko'rib chiqilmagan. Chokum o'z romanlarida alohida ishqdan ko'ra, umumiyligi muhabbatga o'rin beradi. U insonparvarlik nuqtai nazaridan tabiatdagi barcha jonli va jonsiz mavjudotlarni, tasvirlaydi va tahlil qiladi. Çokum o'z romanlarida kin va nafratga ko'p joy bermaydi. Romanlarda insoniy munosabatlarda sevgi va o'zaro tushunish ustunlik qiladi. Dunyoga mehribon, nekbin, iliq munosabat mavjud. U odamlarga nafrat bilan emas, balki sevgi bilan yondashadigan va tushunishni xohlaydigan va muammolarni hal qilishda yumshoq munosabatlarni qo'llaydigan insoniy tuyg'ular bilan shug'ullanadi. Ko'rinish turibdiki, u g'azab va nafratdan ko'ra odamlar orasidagi tushunmovchiliklarni qalamga oladi. "Chiranishlar" va "Tentak davrlar" romanlarida sevgisiz, insonlarga sohta munosabat qiladigan insanlari mavzu sifatida oladi, riyokorlik, sohtakorlik, ayyorlik, manfaat va qizg'onchlik kabi kamchiliklarni tanqidiy nazar bilan asariga olib kiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Chokum idealist yozuvchidir. Yozuvchining romanlari oxirida paydo bo'ladigan umid uning ertangi kunga bo'lgan ishonchidan dalolat beradi. Chokum romanlari ramziy elementlarni ham o'z ichiga olgan. Ramzlar hukmron bo'lgan rivoya uslubi, ramziy deb hisoblanishi mumkin bo'lgan voqealar ko'rindi. Chokumning deyarli barcha romanlarida simpatik, lirik uslub mavjud. Bu uslub ham ba'zan badiiyidir¹.

Aytish mumkinki, Sevinç Çokum so'nggi yillarda yozilgan romanlari ko'plab shaxsiy va ijtimoiy masalalarga bag'ishlangan, roman doirasini kengaytirgan va natijada turk adabiyot olamini boyitgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Arkon Tekinel G. Sevinç Çokum'un Karanlığa Direnen Yıldız Romanında 27 Mayıs'ı Hazırlayan Süreç ve Sonrası
2. Çokum S. Ağustos Başlığı, Cönk Yayınları, İstanbul, 1989.
3. Çokum S. Çırıntılar, Cönk Yayınları, İstanbul, 1991.
4. Çokum S. Deli Zamanlar, Ötüken Yayınları, İstanbul, 2000.
5. Çokum S. Karanlığa Direnen Yıldız, Ötüken Yayınları, İstanbul, 1996.
6. Dede Korkut Uluslararası Türk Dili ve Edebiyatı Araştırmaları Dergisi, cilt.8, sa.19, ss.34-48, 2019.
7. Ercilasun B. Sevinç Çokum ve dört romanı. TÜBAR-XXVI-/2009-Güz
8. İhsan I., "ÇOKUM, Sevinç". Türkiye Edebiyatçılar ve Kültür Adamları Ansiklopedisi. 3. Cilt (2. bas.). Ankara: Elvan Yayınları. (2007)ss. 956-958.
9. Necla D. Sevinç Çokum'un romanlarında sosyal yapı, 2012. <http://dspace2.adiyaman.edu.tr:8080/xmlui/>
10. Şahin S. Edebiyatta "Öteki" ve Sevinç Çokum Örneği -Bizim Diyar, Hilâl Görünunce, Ağustos Başlığı ve Çırıntılar Romanlarında "Öteki"- Year 2011, Volume , Issue 29, 153 – 170.
11. <https://www.turkedebyati.org/sevinc-cokum/>

1 Arkon Tekinel G. Sevinç Çokum'un Karanlığa Direnen Yıldız Romanında 27 Mayıs'ı Hazırlayan Süreç ve Sonrası

Dede Korkut Uluslararası Türk Dili ve Edebiyatı Araştırmaları Dergisi, cilt.8, sa.19, ss.34-48, 2019



TIL TARAQQIYOTIDA TURLI OMILLARNING TA'SIRI

Xolmurodova Cho'lponoy Ubaydullayevna
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi a'lochisi
Namangan viloyati Norin tumani 37- maktab
Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
Telefon: +998939413125
Elektron pochta: cho'lpanoyxolmurodova

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tilining jamiyatda tutgan o'rni, til taraqqiyotining rivoji va unga turli omillarning ta'siri, buyuk allomalarning ona tili taraqqiyotiga qo'shgan hissalarini to'g'risida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: milliy til, milliy ruh, dunyo tillari, so'z qudrati, buyuk allomalar, ijtimoiy ta'sir.

*Ona tili-millat ma'naviyatining mustahkam poydevoridir.
Shavkat Mirziyoyev Miromonovich*

Jamiyatdagi barcha o'zgarishlar, kishilar orasidagi hayotiy voqealar, yangiliklar tilida namoyon bo'ldi. Yer yuzida millatlar, elatlar turli-tuman bo'lganidek, ularning tillari ham turfa xil. Millatning millat bo'lib taraqqiy topishida ona tilining o'rni kattadir. Taniqli jadid adabiyoti vakili, ma'rifatparvar adibimiz Abdulla Avloniy ta'biri bilan aytganda: « Har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadigan oynayi hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak, millatning ruhini yo'qotmakdur».

Ona tili! U haqida qancha ko'p kalomlar aytildi. Ne-ne hofizlar kuylagan, ne-ne olimlar-u shoirlar so'zlagan, go'zal baytlar bitgan. Ammo uning mo'jizasi, jozibasi, sehrli kuchini ta'riflashga hamma mushtoq, har ko'ngil istaydi. Chunki ona tili onamizdek aziz-u mukarram bo'lib bizga dunyoni tanitadi. Bolalikdan shu yerga singdirilgan qalbimizni ma'naviyat bilan sug'oradi. Bizda milliy g'uruning ilk kurtaklarini uyg'otadi. Mustaqil O'zbekistonning Birinchi prezidenti Islom Karimov jumladan shunday degan edi: «Ona tili -bu millatning ruhidir».

Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga ona tilining betakror jozibasi bilan singadi, ona tili avlodlarimiz tili, buyuk tariximiz, kechishimiz nishonasi. Ona tilini anglash bu-o'zlikni anglashdir.

Dunyo tillari, xususan, o'zbek tili qonun himoyasidadir. O'zbek adabiy tili xalqimizning milliy davlat tilidir. Bu til adabiy til sifatida shakllanishida Abdulla Avloniy bobomizning hissasi beqiyosdir, shu bilan birga, M. Qoshg'ariy, Z.M Bobur, A. Qodiriy, Cho'lpon, A.Qahhor kabi tilshunos olimlar-u shoirlarimiz sa'y-harakatlari tahsinga loyiq.

So'z san'ati darg'alari orasida o'z ijodida 2006 mingdan ortiq so'zni qo'llagan Alisher Navoiydek ulug' mutafakkir o'zbek tilini har jihatdan, ayniqsa, lug'at xazinasi nuqtai nazaridan benihoya boy va rivojlangan til ekanligini isbotlagan. Shoiring o'zi aytganidek, u so'z qo'llash borasida so'z boyligimiz tilimiz go'zalligi bilan dunyoda eng yuqori cho'qqini zabit etgan:

Turk nazmida chu men tortibmen qalam,

Ayladim ul mamlakatni yakqalam.

Ha, ona tilini rivojlanib, sayqal topib borishida yozuvchi-shoirlar, olimlarimiz davrlar, zamonlar o'tganda ham o'z mehnatlarining mahsuli bo'lgan asarlari bilan birga kelajak avlodning murabbiysi, yo'ldoshi bo'lib qolaveradi. Chunki xalq dostonlari, maqol va ertaklari, yozma adabiy asarlar, shu jumlasidan, qadimgi turkiy yodgorliklar hamda ona tilida bitilgan yozma manbalar milliy qadriyatlar, urf-odatlar, ezgu fazilatlar manbaidir. Ular bizni o'zbek millatning naqadar oliyjanob, oliyhimmat, kamsuqum, kamtar va shirinzabon millat ekanligini anglashga o'rgatadi. Buning yorqin namunasi sifatida Abdulla Qodiriyning o'tgan kunlar romanidagi quyidagi ota va o'g'il suhbati orqali ko'rishimiz mumkin: «O'g'lim, hali sen eshitdingmi, yoqmi haytov, biz sening ustingdan bir ish qilib qo'yidik». Otabek ma'lumki, ularning qilib qo'ygan yoki qilmoqchi bo'lgan ishini albatta bilar edi. Shunday ham bo'lsa bilmaganga solindi. «Aqli kishilarning o'g'illari ustidan qilingan ishlari noma'qul bo'lmas dedi». Otabek ota-onasiga qo'pollik qilmadi, betiga tik qaramadi, garchi unga mutlaqo yoqmaydigan qaror qabul qilgan bo'lsalar ham ularga hurmat bilan kamtarona muomalada bo'ldi. Shunday ekan, ona tilining jozibasi ortishida, go'zallahib borishda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

1. Har qanday yuksalish ona tilini mukammal bilishdan boshlanadi, shuning uchun o'zbek



adabiy tili me'yorlarini amaldagi yozuv qonun qoidalarini bilish.

2. Nutqda qo'pol so'zlardan tiyilib, ajnabiylar so'zlarni qo'shmay gapirishni o'rganish.
3. Afisha, reklama va e'londlarni to'g'ri yozish, xatosi borlaridan esa ko'z yummashlik.
4. Maktablarda, ko'cha-kuyda, jamoat joylarida, oila davrasida so'zlashganda xushmuomalada bo'lish, milliy qadriyatlarimizni saqlagan holda madaniy nutqqa erishish.

O'quvchi yoshlar, talabalar uchun o'zbek tilining imlo va izohli lug'atlarini turli nusxalarda nashr qilish, ularni narxini aholi ehtiyojiga mos qulay narxlarda ko'paytirish maqsadga muvofiq.

Har bir oilada ota-onalar farzandlari uchun badiiy asarlar bilan birga izohli lug'atlar olib berishsa, bolalarning ilmi olishlari osonlashadi, yana bir imkoniyat yaratiladi.

Yurtboshimiz Sh. M. Mirziyoyev: «Ona tilimiz milliy ma'naviyatimizning bitmas-tuganmas boyligidir. Shunday ekan, unga munosib hurmat va ehtirom ko'rsatish barchamizning nafaqat vazifamiz, balki muqaddas insoniy burchimizdir».

Sohibqiron Amir Temuring harbiy va siyosiy salohiyatiga, Alisher Navoiyning so'zamonligiga Ibin Sino, Mirzo Ulug'bek, Beruniy, bobolarimiz ilmiy kashfiyotlariga butun jahon tan bergen. Biz ana shunday ajdodlarning avlodlarimiz. Ona tilimizga bo'lgan hurmat-ona vatanimizga xalqimizga, buyuk ajdodlarimizga hurmat. Ona tilini unutish ona yurtga millatga xiyonatdir. Tojik shoiri Loiq Sherali yozganidek: Mansabning unutsang mayliga unut.

Martabang unutsang moliyga unut,
Agar sen unutsang ona tilingni,
Zaharga aylansin, ona bergen sut.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Islom Abdug'anievich Karimov «Yuksak manaviyat- yengilmas kuch»
2. «O'zbek adabiyoti majmuasi».
3. A.Navoiy "Xamsa" asari.



BUYUK BRITANIYA INTERNET NASHRLARIDA MIGRATSIYA MAVZUSINING AKS ETISHI

Zoxitova Nodira Xusan qizi,
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktaranti
E-mail: nzoxitova@gmail.com

Annotatsiya. Buyuk Britaniya dunyodagi eng ko'p migrantlarga ega mamlakatlardan biridir. Migratsiya mamlakat OAVda doimiy yoritib boriladigan mavzular qatoriga kiradi. So'nggi o'n yillikda esa Buyuk Britaniya ijtimoiy hayotida migratsiya masalalari asosiy muhokama mavzusiga aylandi. Mazkur maqolada so'nggi o'n yillikda migratsiya mavzusining Buyuk Britaniya internet nashrlarida aks etishi o'r ganilgan.

Kalit so'zlar: muhojir, qochoq, migrant, internet nashrlar, OAV, The Guardian, The Sun, Mail online.

Buyuk Britaniya OAVda migratsiya mavzusi dolzarb mavzulardan biridir. Nashrlarning migratsiya mavzusiga nisbatan bildirayotgan munosabati, ushbu jarayonga, Buyuk Britaniyadagi muhojirlar va qochoqlar hayotiga ta'sir etmay qolmaydi. Britaniyaliklar muhojirlarning aksariyat qismini turli xil yo'llar bilan kirib kelayotgan (qonuniy, noqonuniy) qochoq yoki boshpana izlayotganlar deb hisoblaydilar. Haqiqatda esa, bunday toifadagi kishilar statistikaga ko'ra muhojirlar va mamlakat aholisining ko'p bo'lмаган qismini tashkil etadilar. Britaniyaga kelayotgan immigrantlarning asosiy qismini o'qishga, ishlashga yoki "oilani birlashtirish" uchun kelgan kishilar tashkil etadi. Immigratsiya masalalari bilan shug'ullanuvchi kompaniya xodimlari kishilarning bunday xulosaga kelishlariga sabab "OAVda qochoqlar va ularning miqdori adolatsiz talqin etilishidir" - deb hisoblaydilar. Qolaversa, 2016 yildagi UNHCR tashkiloti tadqiqotiga ko'ra "Buyuk Britaniya nashrlari G'arbiy Yevropa mamlakatlari matbuoti orasida muhojirlarga nisbatan eng salbiy ruhda yondashgan" deb topilgan. Britaniyalik sobiq jurnalist G. Lizning xulosalariga ko'ra, "Britaniya o'ng qanot ommaviy axborot vositalari muhojirlar va qochoqlarga nisbatan boshqa Yevropa OAVga qaraganda salbiy va dushmanlik bilan yondashgan". Britaniyalik olima K. Moore "Buyuk Britaniya matbuotida muhojirlar va qochoqlar asosiy yangiliklar mavzusi bo'lib, ular tabloid nashrlarda Britaniya oldida turgan "inqiroz" sifatida tasvirlangan", - deya ta'kidlaydi. Britaniya internet nashrlarida so'nggi yillarda muhojirlar ko'payib ketishida siyosatchilarni ayplash, "noqonuniy" muhojirlarning hayoti xususida gap ketganda ularning o'zini ayplash namoyon bo'ladi. Noqonuniy yo'l bilan kirib keluvchi migrantlar bilan bog'liq muzokaralarda iqtisodiy argumentlar yetakchilik qiladi.

Oxirgi o'n yillikda nafaqat Britaniyadagi, balki ko'plab Yevropa mamlakatlaridagi OAVning migratsiya jarayonlariga nisbatan bo'lgan faoliyatini uch davrga bo'lish mumkin:

- Yevropa migratsiya inqirozigacha bo'lgan davr ;
- Yevropa migratsiya inqirozi davri;
- Yevropadagi migratsiya inqirozining susayish davri.

Birinchi davrda 2013 yilning so'ngiga qadar Britaniya matbuotining internet sahifalarida qochoq (refugee) so'zi juda ham kam qo'llanilgan. "The Guardian" nashrining internet sahifasida ushbu so'zning qo'llanilishi "arab bahori"ning boshlanish davrlariga (2011 yil) to'g'ri kelishi ma'lum bo'ldi. Liviyada Muammar Qazzofiyning hokimiyatdan ag'darilishi va qo'zg'olonlar natijasida ba'zi kishilarning "qayiqlar orqali Yevropaga ko'chishi", Turkiyadagi lagerlardan panoh topishi bilan boshlanadi. Undan so'ng Bashar Assad rejimidan qochayotgan "suriyalik qochoqlar" muammosi bilan davom etadi. Britaniya hukumati qochoqlarni mamlakatga kiritmaslikka harakat qiladi, tabiiyki, aksariyat Britaniya OAV yondashuvi ham shunga monand ish ko'rgan. Biroq "guardian.co.uk" internet sahifasi Britaniya nashrlari ichida doimgidek bu jarayonga ijobiy yondashishga va "qochoqlarni qabul qilishga" chaqiradi. Ba'zi o'rnlarda, hatto "tariixa murojaat qilib" qochoqlarni qabul qilish, ular bilan ishslash, o'rganish lozim bo'lgan narsalar haqidagi ijobiy yondashuvarini taqdim etadi. Biroq, migratsiya mavzusida Britaniya uchun qochoqlar muammosi muhim bo'lмаган. Chunki, "arab bahori"ning ilk yillarida boshlangan qo'zg'olonlar natijasida qochoqlar qo'shni mamlakatlardan panoh topgan edilar. Shu sababli 2013–2014 yillarda mehnat muhojirlari borasidagi asosiy e'tibor Sharqiy Yevropa mamlakatlari, xususan, Polsha fuqarolariga qaratilgan. Chunki, "2014 yilga kelib Buyuk Britaniyada polyaklar soni 853000 nafarni tashkil



etgan". Bolgariya va ruminiyalik muhojirlar ham materiallarda asosiy muhokama ob'ekti bo'lgan. Ushbu bosqichda arab mamlakatlarida boshlangan fuqarolik urushlari Yevropa uchun xavfsizdek tuyulgan. Shu sababli ham ushbu davrda Yaqin Sharq mamlakatlaridan kelishi mumkin bo'lgan qochoqlar mavzusiga e'tibor qaratilmagan.

Ikkinchı davr – Suriyada urushlarning kuchayishi, Afg'oniston va Iroq kabi mamlakatlarda hanuz tinchlikning ta'minlanmaganli natijasida qochoqlar soni keskin o'sa boshladidi. 2014 yil oxiriga kelib qochoqlar masalasi dunyo OAVning, xususan, Britaniya internet nashrlarining asosiy mavzusiga aylana boshlandi. 2015 yilga kelib, barcha e'tibor chegaralardagi qochoqlarga, ularning O'rta Yer dengizidagi halokatli holatlariga, qochoqlarning Yevropa mamlakatlari bo'ylab qanday taqsimlanishiga, imkoniyatlariga va qanday kutib olinayotganliklariga qaratildi. 2015 yilning o'rtalarida bu jarayon o'zining yuqori cho'qqisiga ko'tarildi. Aynan shu davrga kelib internet nashrlarda suriyalik va liviyalik muhojirlar, qochoqlar degan so'zlar paydo bo'la boshlagan.

Suriyalik qochoq bolakay Alanning Turkiya sohillariga chiqib qolgan jonsiz tanasidan so'ng (2015 yil sentabr) barcha OAV qochoqlarga muloyimlik bilan yondasha boshladilar. Ma'lum bir haftalar o'tgandan so'ng esa, hammasi yana unutildi. Bu haqida "The Times" gazetasining sobiq jurnalisti L.Gerard, EJO (European journalism observatory)ning o'tkazgan tadqiqotlarida ham aytib o'tilgan. Ayniqsa, 2015 yilning noyabr oyidagi Parijdagi terakt hamda shu yilning yangi yil kechasida Kelnda ayollarga qilingan zo'ravonliklar natijasida qochoqlarga bo'lgan munosabat keskinlashdi.

Uchinchi davr – (2017 yil) qochoqlar soni biroz kamaygan, vaziyat yumshayotgan davrga kelib OABda "qochoq" so'zi iste'moli kamayib, ko'proq "muhojirlar" so'zi qo'llanilgan, qashshoqlikdan qochib kelayotgan afrikalik kishilar mavzusi yoritila boshlagan. 2018–2019 yillarga kelib "The Guardian" internet sahifasida mamlakatdagi migratsiyaning hozirgi holati qanday, migrant va qochoqlar o'zi kimlar, muhojirlarni qabul qilish borasida qanday ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda mazmunidagi mavzular yoritilgan.

Foydalanaligan adabiyotlar ro'yxati

1. Цифры и факты. Все, что британцы думают об иммигрантах, неправда // <https://www.astons.com/ru/news/tsifry-i-fakty-vse-ctho-britantsy-dumaut-ob-immigrantah-nepravda/>.
2. Mike B., Garcia I., Moore K and etc. Press Coverage of the Refugee and Migrant Crisis in the EU: A Content Analysis of Five European Countries. –Cardiff University report. – UNHCR, 2015. – P.11.
3. Gerard, L. The press and immigration: Reporting the news or fanning the flames of hatred? SubScribe, 3 September 2016 // <http://www.sub-scribe.co.uk/2016/09/the-press-and-immigration-reporting.html>.
4. Moore K. "Asylum Crisis", National security and the re-articulation of human rights. In K. Moore, B. Gross & T. Threadgold (Eds), Migrations and the Media. – New York: Peter Lang, 2012. – P. 73.
5. Oliver H., Anna M. Polish population of the UK. Briefing paper. – London: House of common library, 2016. – P.3.
6. Gerard L. The Press and immigration: reporting the news or fanning the flames of hatred? // <http://www.sub-scribe.co.uk/2016/09/the-press-and-immigration-reporting.html>.
8. European Journalism Observatory Research: How Europe's Newspapers Reported The Migration Crisis // <https://en.ejo.ch/research/research-how-europes-newspapers-reported-the-migration-crisis>.



“ҚАНОТ ЖУФТ БЎЛАДИ” ҚИССАСИДА ОИЛА ВА БУРЧ ТУШУНЧАЛАРИНИНГ РЕАЛИСТИК ТАЛҚИНИ

Умида Мансурова

Тошкент шаҳридаги 328- умумтаълим мактабининг
Она тили ва адабиёт фани ўқитувчиси

Аннотация: Ушбу мақолада XX аср ўзбек адабиётининг атоқли адибларидан бири Одил Ёқубовнинг “Қанот жуфт бўлади” қиссаси таҳлилга тортилди. Қиссада етакчи қаҳрамонлар - Акрам ва Сайёра образлари тимсолида оила, ижтимоий ва маънавий бурч, севги ва муҳаббат тушунчалари ёзувчининг характер яратиш маҳорати нуқтаи назаридан тадқиқ этилади.

Калит сўзлар: оила, замон, севги, бурч, қаноат, урф-одат, янгича дунёқараш, характер, конфликт, бадиий талқин.

XX аср ўзбек адабиётининг йирик вакилларидан бири бўлган Одил Ёқубов ўзининг бир қанча романлари, қисса ва ҳикоялари билан ўзбек адабиётини янги босқичга олиб чиққан ижодкорлардан биридир. У ўз асарларида тарихни, бугунги кунни ва келажакни турли образлар билан кўрсатилган уринган. Бу образларнинг аксарияти ёшлардир. Уларнинг жамиятда, оиласда ўз ўрнини топишга бўлган интилишлари, шунингдек “замонавийлик” ниқоби остига яшириниб майшату мансабга эргашганликлари “Муқаддас”, “Қанот жуфт бўлади” қиссалари, “Эр бошига иш тушса” романинг асосини ташкил қилади.

“Одил Ёқубов асарларининг барчаси полифоник характерда бўлиб, унда инсон тақдири, дард-алами, севги-хижрони, ҳаёт ҳақидаги ўй-фикри ётади. Қаҳрамонларининг ҳаммаси фаолият кишилари, ҳаёт ҳақиқатини тўғри тушунувчи одамлардир. У деярли замонавий мавзуда – бугунги кун ҳақида ёзади. “Қанот жуфт бўлади” номли қиссаси ҳам бугунги кун учун ғоят актуал бўлган севги, замон, ахлоқ ва оила масаласига бағишлиланган бўлиб, бу борада баъзи бир кишиларнинг “фалсафаси” билан миллий анъаналар, олийжаноб инсоний фазилатларни ёқловчи кишилар ўртасидаги фикрий тўқнашувлар ҳақида ҳикоя қилади. Бироқ ёзувчи ушбу асарда севги, оила, ахлоқ бундай бўлиши керак деб, қуруқ айтиб қўймайди, балки ман шу борадаги ҳаётий воқеаларни тасвирлаб, китобхон билан фикрлашади, уни мунозара га тортади”.

“Ижод маҳсули ижодкор шахсиятидан ўзгача бўлмайди. Ижодкор ва асар муносабатини оғоч ва унинг мевасига ўхшатиш мумкин. Бирор мева уни етилтирган оғочдан ортиқ бўлолмагани каби бадиий асар ҳам унинг муаллифи даражасидан баланд бўлолмайди”.

Одил Ёқубов ҳам ҳаётида жуда оилаварвар ва талабчан инсон бўлган. Турмуш ўртоғи Марям Ёқубова қуидагича эслайди: “...Хизмат сафарлари жуда кўп. Ҳаётларининг катта қисми йўлда ўтади. Уй-рўзғор ташвишлари менинг зиммамда бўлса-да, қанча кўп ишласалар ҳам, қурилиш ишларига барибир Одил аканинг ўзлари бош-қош бўлардилар. “Аёл киши саранжом-саришталик, пазандаликни дўндириши керак. Эркак эса бу ишларни бажариш учун аёлга шароит яратиши лозим. Уйни қуриш мендан, ясатиб, гуллатиш сиздан, лекин мен ишимни уддалагинимча сиз сабр қилинг. Сизга сабр, менга куч-қудрат берсин бу ишларимизда”, – деган сўзни кўп айтардилар”.

“Қанот жуфт бўлади” асарининг қаҳрамони Акрам ҳам ёзувчимиз шахсиятини ўзида кўрсатувчи оилапарвар, ҳалол ва ор-номусли йигит. У оиласи ва ор-номуси учун курашган шахс. Асар бошида бежизга ёзувчимиз Сайёрани “Севги, ахлоқ ва замон” деган лекцияни эшитиш учун уйидан чиқиб кетганлиги ҳақидаги воқеани киритмаган. Асардан келиб чиқадиган хулоса ҳам севги қайси замонда бўлмасин ахлоқ тушунчаси билан ёнма-ён эканлиги ҳақидаги ишорасидир.

Акрам чиндан ҳам бундай мунозараларни кўп ҳушламас, бироқ Сайёранинг “Сизга бу мунозара бачканга туюлса керак, албатта” деган сўзлари кўнглига оғир ботганлиги учун боришига қарор қилади. Залга кириб борганида бир домла нутқ сўзлаётган эди. Сайёра эса дўстлари даврасида худди турмушга чиқмаган ўн саккиз ёшли қизлардек ўзини ўта эркин тутиб, кулишиб ўтирас, нутқ сўзлаётган кишининг эса сўзларини тингламас эди. Энг ачинарлиси, дўстлари орасида нутқ сўзлаётган домланинг ҳам қизи бор эди. Уларни кўриб Акрамнинг ғаши келади. Домла куюниб, қуидагича нутқ сўзлаётган эди “– Масалан, илгари ўзбек қизларига хос бўлакча иффат, уятчанлик, одоб ва ахлоқ, вафо ва садоқати олайлик...



– Ҳозирги ўзбек қизларида садоқат қолмади, демоқчимисиз?

Залда “турр” кулги кўтарилиди.

Домла овоз келган томонга ҳумрайганча тикилиб, бир лаҳза жим қолди, кейин оғир хўрсиниб, давом этди.

– Йўқ, мен ундан демоқчи эмасман, ука. Лекин... Аччиқ ҳақиқатдан кўз юмолмайман. Мен афсус билан айтаманки, бизнинг қизларимизга хос ажойиб фазилатлар, яъни бўлакча уятчанлик, камтарлик, ибо ва ҳоказо ҳислатлар... илгаргидек эмас! Билмадим, эҳтимол биз кексалар ҳаётдан орқада қолгандирмиз...

– Яшанг, тан олганингиз учун раҳмат, домла!”

Ўзларини одобсиз болалардек тутаётган бу ёшларнинг ҳаракати нафақат Акрам, балки ўқитувчи китобхоннинг ҳам ғашини келтиради. Лекин ёзувчимиз бирдан ёшларни ҳам айбламайди. Шу ўринда ёшларнинг ҳам қайсиdir маънода билдирилган фикрлари тўғри эканлигини Убайжоннинг нутқи орқали кўрсатади. Хуносани эса китобхонга юклайди.

“– Домланинг яхши насиҳатларини эшишиб ўтириб, бир воқеа эсимга тушиб кетди... Бизнинг қишлоғимизда икки опа-сингил бор эди. Иккаласи ҳам худди домла айтганларидек жуда одобли, иффатли, камтарин қизлар эди...

– Бир пайт опа-сингиллар турмушга чиқишиди. Лекин опаси эрининг ҳақоратларига чидолмади, кўп ўтмай эридан ажраб ўқишига кетиб қолди. Синглиси ҳам эридан ёлчимади, лекин уй бузилмасин деб, ҳаммасига чидади. Ҳам даланинг қаттиғига, ҳам уйнинг аччиғига дош берди. Қишлоқда уни мақтамаган одам йўқ эди. Опасини қанча гап-сўз қилишса, синглисини шунча кўкларга кўтаришади... Энди бу ёғини эшилинг. Бултур опаси қишлоққа қайтиб боради. Тиш доктори бўлиб боради. Ўзи билан ўқиган бир доктор йигитга турмушга чиқиби. Ўзиям денг, ёшариб, очилиб кетиби. Опасининг олдида синглисини мисоли бир кампир дейсиз...

– Хуллас, –деди, – ҳозир бутун қишлоқ опасини ўтқазгани жой топмайди, синглисини бирор эсга ҳам олмайди... Ҳўш, энди мен хурматли домладан сўрамоқчиман: бу икки қишлоқ қизининг қайси бири чин олқишига сазовор. Ўз инсоний қадрини таниган опами ёки гап-сўздан кўрқиб нодон эрнинг чўрисига айланган сингилми?”.

Акрамнинг ичидаги бу ғашлик тобора алана олиб боради, кафедрадаги қўнгилсиз воқеа эса бу алангани янада кучайтиради. Кафега кириб бориши билан соқолли йигит билан танцага тушаётган Сайёрани кўриб, кетишини ҳам кетмаслигини ҳам билмай қолади. Сайёра эса Акрамни кўргач олдига келади ва ўз даврасига таклиф қиласди. Даврадагилар эса уни ҳозирги замон зиёли кишиси деб атайди. Бунга эса шундай гўзал рафиқасини ярим кечагача кафе-ресторанларда юрса ҳам рашқ қилмаслигини сабаб қилиб кўрсатади. Нилуфар эса ҳозирги кишилар эски урф-одатларга ёпишиб олганлигини, трамвай ёки троллейбусга чиқса, халта-хуржин, тоғора-баркаш кўтариб олган одамларга кўзи тушишини, айниқса қишлоқдан келган одамлар уялтиришаётганлигини, замон талабларига ҳам қараш кераклигини айтиб, Акрамнинг иззат-нафсига тегади. Сўзининг исботи сифатида бултур ёзда Зафар билан Гуржистонга боргандигини, қишлоқ одамлари ҳам ўта маданиятли эканлигини айтади... Сайёранинг гоҳ Шавкатжон билан, гоҳ Зафар билан ракс тушиши Акрамнинг асабини баттар таранглашитиради. Буни сезган Убайжон Акрамга қаратса парво қилмаслигини, бу замоннинг зайли эканлигини айтганда “Замоннинг зайлими ё... турмушнинг аччик-чучукларини билмаган тантиқларнинг олифтагарчилигими” дея жавоб беради. Акрам Сайёрани кафега ташлаб чиқиб кетади... Эртаси кун Сайёранинг: “Ха, албатта, сизга барибир. Баттар бўлинг. Хотинингизни ўша йигитлар ичириб маст қилишди. Боя жинингизга ёқмаган кинорежиссер хушомад қилди. Машинада олиб келиб кўйди”, дейиши ва бу гапларга жавобан тарсаки еган Сайёранинг холати барчасига якун ясади.

Сизнингча бу воқеаларга Сайёра айборми, ёки замон? “Шунга кўра, асарда ҳали ҳам қолоқлик асоратларидан кутила олмаган бир қанча кишиларнинг образлари тасвиrlанган. Лекин қиссадаги бош конфликт қолоқлик билан илғорлик орасида эмас, балки муайян мухитда тарбия топган ҳарактернинг бир хил масалаларни ҳар хил тушунишлари асосига курилган. Бу тушунчаларнинг баъзилари ёзувчи назарида қолоқлик иллатларидан ҳам заарлироқ...”.

Сайёра ёшлигидан истаган нарсасига қўли етадиган оилада тарбияланган. Акрам билан турмуш қурғанларидан сўнг у умуман бошқа оламга тушиб қолди. Ҳам уй-рўзгор ишлари ҳам фазанд тарбияси деб ўқишини ҳам ташлашга мажбур бўлади. Акрамни эса бошқа



дўстлари билан солишири бошлади ва ўзини бахтсиз сеза бошлади. Охири Акрамга аччиқ сўзларни айтишга мажбур бўлди. Акрамнинг бир тарсакиси уни дунёдаги энг кўрс ва қўпол одамга айлантириди.

Ёзувчи Сайёранинг оила ҳақидаги тасаввурини ўзгартириш учун ҳаёт "қозон" и га ташлади. Унинг психологиясидаги ўзгаришларни кўрсатиш учун Ойдинбулоқ қишлоғига олиб борди.

Сайёра ота-онасининг гапига ҳам қулоқ солмасдан, киночиларга қўшилди. Бошида бироз ўзини бахтли ҳис қилди. Шавкатжон сёмкани Ойдинбулоқда бўлади деганда юраги бир орзиқиб кетди. Парво қилмасликка ҳаракат қилди. Қишлоққа келганида янги келин пайтидаги ширин дамлари эсига тушди.. Акрамнинг болаликдаги дўсти Туробжонни кўрганда эса, тили гапга ҳам бормай қолди. Катталардек фикр юритадиган ва хеч нарсадан хабари йўқ қайниси Нортожи: "Қишлоққа келибсиз, уй-жойингиз туриб, бу ерда ётишингиз қандоқ бўлди? Ё сизга ёмонлик жойимиз борми?" дейиши, қайнонаси Моҳира холанинг эса "Эсон-омон юрибсизми, ойинг ўргилсин, болам" дейиши, у ҳам етмаганидек тинмай келинлик пайтидаги яхши кўрган овқатларини кўтариб келиши Сайёранинг қалбидаги музни эрита бошлади. Қишлоқ аёлларининг пахта даласида қандай қийналиб ишлашини, ҳали сутдан чиқмаган гўдакларини ҳам колхоз далаларига олиб боришини, кечалари дала суғоришини, Ҳамиданинг бошига тушган фалокатлар орқали аёлларнинг эрки чекланган эканлигини кўриб, кинодан кўнгли совуди, ҳаётга бошқа кўз билан қарайдиган бўлди.

Сайёра оёғи синиб касалхонада ётганида эрини кўп кутди. Гарчи бирорвга сездирмаса ҳам йўлига кўз тутди. Қуш бир қанотида уча олмаганидек, бу ҳаёт йўлларида қийинчиликларга бардош бериб, синовларга чидаш учун албатта, инсон ўз жуфти билан яشاши даркор. Акрам ва Сайёра эса буни охир-оқибат тушуниб етишди. "Одил Ёқубов бу асари билан ягона мақсад йўлидаги одамларни бир-бирларини тушунишга, энг муҳими, ўз тушунчаларини самимий, жуфт қанот бўлиб иш тутишга чақиради."

Одил Ёқубов турли образларни яратиб, миллий насримизни ўзига хос шахслар билан бойитди. Бу асарлардаги аксарият тимсоллар чин муҳаббат ва самимий туйғулар эгаси. Бу самимий туйғулар орқали асар қаҳрамонлари гоҳо яхшилик топса, гоҳо бунинг акси. Гоҳ жамиятда ўз ўрнини топди, гоҳ оиласида. Нима бўлганда ҳам инсон ўз оиласи ва яқинлари бағрида ўзини эркин тутиши ва бахтли бўлишга ҳақлидир.

Адабиётлар рўйхати

1. Ёқубов О. Сайланма. 1987 йил.
2. Ёқубова М, Ёқубов И. "Улуғ ва садоқатли муҳаббат". Тошкент, 2012 й.
3. Иззат Султон. Адабиёт назарияси. Тошкент, 1980.
4. Ҳакимжон Каримов. "Адабий портретлар" 2017 йил.
5. Қозоқбой Йўлдош. "Сўз ёлқини" Тошкент 2018.
6. Қўшжонон М. Танланган асарлар. – Тошкент, 2018. 228 б.



ONA TILI DARSLARIDA PSIXOLOGIK JARAYONLAR

Miraxmedova Nargiza


Toshkent viloyati Zangiota tumani
38 – IDUMI boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda ona tili darslarini tashkil etishda psixologik jarayonlar haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: kim hakam o'yini, taqdimot – tadqiqot usuli, piramida o'yini.

PISA (inglizcha - Programme for International Student Assessment) – turli davlatlarda 15 yoshli o'quvchilarining savodxonligini (o'qish, ona tili va adabiyoti, matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimlarini amaliyatda qo'llash qobiliyatini baholovchi dastur. Bu dastur 3 yilda bir marotaba o'tkaziladi. Dastlab 1997-yilda ishlab chiqilgan va 2000-yilda birinchi marta qo'llanilgan. **PISA** bo'yicha bahoning 50 ballga oshishi har yillik Yalpi ichki mahsulot (YAIM) ning 1% ga o'sishini ta'minlaydi?

Qanday xalqaro baholash dasturlari mavjud?



Ona tili fani darslarida nafaqat ona tili butun fanlarning o'qitishda darslarda psixologik jarayonlar muhim rol o'ynaydi. O'qituvchida pedagogik mahorat bilan birga psixolog bo'lmos'i lozim. Bola psixologiyasini yaxshi tushungan o'qituvchi haqiqiy pedagog bo'la oladi. Har bir darslarda psixologik o'yinlarga bvaqt ajratish darsning qiziqarli bo'lishiga o'quvchining e'tiborini o'ziga tortishga mavzuni yaxshi tushinishga qo'pol qilib aytganda uxlayotgan o'quvchining uyg'otishga juda katta yordam beradi. Va shu bilan birga o'quvchi qachon yana shu darsga kirar ekanmiz degan fikrni uyg'otishga sabab bo'ladi.

"Kim hakam" o'yini

O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida "Kim hakam" o'yini olib boriladi. Bunda o'quvchilardan diqqat, tezkorlik, hozirjavoblik talab etiladi, O'quvchi fikrini jamlashga harakat qiladi. O'qituvchi tomonidan ma'lumotlar tezkorlik bilan o'qiladi. Bunda har bir guruh a'zolari to'g'ri ma'lumotlar uchun- "qizil kartochka", noto'g'ri ma'lumotlar uchun- "sariq kartochka"larini ko'tarishadi. Natijalarni aniqlab borish uchun har bir guruuhga nazoratchilar biriktiriladi.

"Taqdimot-tadqiqot" usuli.

Bu bosqichda har bir guruhdan bir nafar o'quvchi yangi mavzu va yangi mavzuni o'tilgan mavzular bilan bog'lash maqsadida doskada taqdimot qilishadi. O'qituvchi tomonidan yangi mavzu bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar berib o'tiladi.

"Piramida" o'yini

Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida "Piramida" o'yini olib boriladi. Bunda To'rtala guruuhga alohida mavzular beriladi, guruh a'zolari berilgan mavzu bo'yicha barcha ma'lumotlarni maxsus kartochkalarga yozishadi va piramida tasvirlangan ko'rgazmaga yopishtirib chiqadilar.



Natijalar tekshiriladi noto'g'ri va takrorlangan ma'lumotlar olib tashlanadi va qolgan natijalar hisoblanadi. Eng ko'p ma'lumot yozgan guruhlar taqdirlanadi. Bunda o'quvchilar o'tilgan mavzuni egallaganlik va mavzu bo'yicha tushunchalarni o'zlashtirib olganlik darajasi aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o'zlarining bilim darajalarini baholay olish, yakka va guruhlarda ishlay olish, safdoshlarining fikriga hurmat bilan qarash, shuningdek o'z bilimlarini bir tizimga solishga o'rgatadi.

"Matn tuzib ko'r, aqling bo'lar zo'r".

O'quvchilar monitordan uzatilgan rasm asosida, berilgan muddatda matn tuzishadi. Tuzilgan matnda undov, modal, taqlid so'zlar ishlatalishi kerak. Mazmunli va undov, modal, taqlid so'zlardan ko'p ishlatgan matn egalari g'olib bo'lishadi.

Psiyologik test. Bunda o'quvchilarning dars jarayonida, hayotda o'zini qanday tutish kerakligi haqida ma'lumot berish. Monitordan ayrim timsollar tasviri ko'rsatiladi. Namoyish qilingan timsollar o'quvchilar tomonidan tanlab olinadi va o'sha so'z ishtirokida bittadan gap tuziladi. Bu gaplari bugungi darsning xulosasi bo'lishi mumkin. Agar o'quvchi tulki rasmini(timsolini) tanlagan va tuzayotgan gapi quyidagicha bo'lishi mumkin.

Masalan, Tulki "voy" deb qochdi.(undov so'z)

O'quvchilar tanlagan timsol nimani anglatishi mumkinligini o'qituvchi monitorda o'qib eshittiriladi va o'quvchilar hukmiga havola qilinadi.

Ma'lumki, o'quvchilarga mavzuni tushuntirishda g'ayri odatiy usullar bilan tushuntirish kerak. O'quvchilarga ona tili fanini ahamiyati hozirgi kunda juda muhim ekanligi, o'zbek tilini rivojlantirish yo'llarini o'rgatish har bir o'qituvchini muhim vazifasi hisoblanadi. O'quvchilarimizi xalqaro baholash dasturiga tayyorlash har bir o'qituvchinin oldidagi vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Ona tili fanidan xalqaro baholash dasturiga o'quvchilarni o'qitish bo'yicha metodik qo'llanma.
2. Ona tili darslik 9 sinf Toshkent 2018yil
3. Internet ma'lumotlari



HUJJATLARNI DAVLAT TILIDA YURITISH MAMLAKAT TARAQQIYOTI GAROVI

Nuraliyeva Nodira Aminjonovna

Farg'on'a viloyati yuridik texnikumi Devonxona mudiri

Annotatsiya: maqolada hujjatlarni davlat tilida rasmiylashtirish, ish yuritishni o'zbek tilida olib borish masalasi yoritilgan.

Kalit so'zлari: hujjatlar, davlat tili, bozor iqtisodiyoti, ish yuritish.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish munosabati bilan iqtisodiyotning barcha sohalarida islohotlar olib borilmoqda, shu bilan birga ish yuritish sohasida ham bir qancha kamchiliklar mavjud ediki, ular tezda bartaraf etilmoqda. Buning uchun bu sohada avvalo hujjatlar bilan ishlashtirishga e'tibor berish hamda iloji boricha ish yuritish jarayonini ixchamlashtirish lozim. Chunki rahbarlar hujjatlarni qabul qilganda ular nechog'lik sodda va ixcham bo'lishi, uning vaqtini ko'p egallamasligi lozim.

Har qanday hujjat muayyan axborotni u yoki bu tarzda ifodalash uchun xizmat qiladi, demak, har qanday hujjatdagi birlamchi va asosiy unsur, bu tildir. Mamlakatimizda hujjatlarni davlat tilida rasmiylashtirish, ish yuritishni o'zbek tilida olib borish masalasi dolzarb muammolardan biri bo'lib, ish yuritish sohasida bir qator islohotlar amalga oshirilgan, me'yoriy hujjatlar qabul qilingan.

Xususan, 1999-yil 29-martda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiysi va boshqaruvi organlarida ish yuritish va ijro nazoratini tashkil etish bo'yicha normativ hujjatlarni tasdiqlash haqida"gi 140-qarori, Bosh vazir tomonidan 2009-yil 30-avgustda tasdiqlangan "Vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralari, xo'jalik birlashmalari, ularning tarkibiy va hududiy bo'linmalarida hujjatlar bilan ishlashtirishni tashkil etish hamda ijro intizomining ahvoli monitoringini olib borish tartibi", 2000-yil 25-iyulda 283—"Rasmiy davlat hujjatlarini tayyorlash, hisobga olish, saqlash, topshirish hamda ulardan foydalanish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari, idoralari, korporatsiyalari, konsernlari, uyushmalari, kompaniyalari va boshqa markaziy muassasalarini apparatlarida ish yuritish va ijro nazoratini tashkil etish bo'yicha Namunaviy yo'riqnomasi (O'zR VM 29.03.1999-y. 140-sonli qarorining 2-ilovasi) shular jumlasidandir.

Lekin respublikamizda bugungi kunlarda ham davlat tilida ish yuritish jarayonlariga to'liq amal qilinmoqda, deb bo'lmaydi. Yuzaga kelgan holatni yaxshilash maqsadida 2020-yil 25-aprelda Adliya vazirligi davlat tilida ish yuritishni ta'minlamaganlik uchun mansabdor shaxslarga javobgarlik belgilashni nazarda tutuvchi qonun loyihasini ishlab chiqdi. MJtKning 42-moddasiga: «Davlat organlari va tashkilotlarida ish yuritishda davlat tili haqidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etmaslik, mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi» degan to'ldirish kiritishni taklif etilgan.

Dastlab davlat va nodavlat tashkilot, korxona, muassasalarda davlat tilida ish yuritish nazariyasi va amaliyoti, boshqaruvni me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlash, asosiy faoliyat va shaxsiy tarkibga oid hujjatlarni rasmiylashtirish tartib-qoidalari to'g'risida malakaviy o'qitish kurslarini tashkil etish lozim. Ularda sohaga oid mavjud huquqiy-me'yoriy hujjatlar, ilmiy adabiyotlar va davlat tilida ish yuritish bo'yicha to'plangan ilg'or tajribalar, mutaxassislarining fikr, talab va takliflari kabi mavzular yoritiladi. Kerak bo'lganida davlat tili bo'yicha bir nechta mashg'ulot o'tkazilishi mumkin. Shu bilan birga mashg'ulotlarda tashkilotda ish yuritish xizmati faoliyati, hujjat turlari va ularni rasmiylashtirish tartibi, hujjat almashuvi, hujjatlarning rekvizitlari va mazmuni, hujjatshunoslik va yuridik nuqtayi nazardan to'g'ri rasmiylashtirish, ularni tartibga solish va saqlash, elektron shaklda ish yuritish kabi masalalar yuzasidan amaliy topshiriqlar berilib borilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, ish yuritish jarayonida hujjatlarni davlat tilida olib borish, o'zbek hujjatchiliginib bugungi kun talablari asosida shakllantirish va rivojlantirish uchun ham markazlashtirilgan holda katta ishlarni amalga oshirish, aniq tashkiliy tadbirlar belgilash kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mahmudov N., Rafiyev A., Yo'ldoshev I. Davlat tilida ish yuritish. – T.: 2004
2. Boymatova U., Sobirjonova D. Boshqaruvi faoliyatida ish yuritish – T.: 2006



SIYOSIY-IJTIMOIY TERMINLARNING ARAB GAZETALARIDA FE'L SIFATIDA UCHRASHI

Akbarov Akbarali
Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti
2-bosqich magistranti
Ilmiy rahabar: Qosimova S.S

Annotatsiya: Siyosiy-ijtimoiy terminlarning arab gazetalarida fe'llarni qo'llanishi. Fe'llarning semantik holati va ma'nolari. Siyosiy-ijtimoiy sohasidagi fe'l terminlarini o'zbek tilida aks etishi.

Kalit so'zlar: Siyosiy-ijtimoiy terminlar, fe'l, tarjima, arab gazetalari, fe'l semantikasi.

وقد يعرف التحرير من عنونه

Arab xalq maqoli

Arab gazetalari sarlavhalari, asosan, maqolani nomlash, maqola mazmunini bildirish hamda reklama qilish vazifalarini bajaradi. Ayrim ishlarda sarlavha tashviq qilish, ishontirish, izohlash, bayon qilish vazifalarini bajarishi ham mumkin.

Gazeta sarlavhasi har qanday bositgan maqolaning ajralmas qismidir. Sarlavhaning mazmunini ixcham shaklda taqdim etish bir vaqtning o'zida ham muallifning asosiyligi g'oyasini aks ettiradi, ham o'quvchi e'tiborini jalb qilishga xizmat qiladi. Shunday qilib, gazeta sarlavhasidagi ma'lumot xabar yetkazuvchi va o'quvchi (gazetxon) o'rtasidagi aloqa vositasining bir qismiga aylanadi. Bu holda, qoida tariqasida, muallif sarlavha orqali ma'lum bir voqeа yoki hodisa to'g'risida o'z bilimlarini yetkazadi yoki ma'lum bir mavzu bo'yicha o'zi yoki tahririyat fikrlarini nashr etadi.

Arab tilidagi har bir gazeta materiali shakl va axborotni taqdim etish tartibi nuqtai nazaridan o'zining ichki mikrotizimiga ega bo'ladi: xabar matni (الجسم) va sarlavha majmuasi (العنوانين), Sarlavhalar majmui o'z navbatida bir qator unsurlarga ega bo'ladi: sarlavhalar (الصدر), sarlavhausti va sarlavhaosti sarlavhalar (العنوانين الفرعية).¹ (kirish matnlari)

Ma'lumki, gazeta matnida asosan o'tgan voqeа, hodisa haqida axborot beriladi. Shu sababli matnda o'tgan zamon fe'llarining qo'llanilishi sermahsuldir. Arab gazeta sarlavhalaridagi fe'llarning uslubiy xususiyatlaridan yana biri, matnda bo'lib o'tgan voqeа-hodisa haqida ma'lumot berilayotgan bo'lsada, aksar holatlarda shu matn sarlavhasida fe'l hozirgi-kelasi zamonga qo'yiladi. Arab gazeta sarlavhalarida hozirgi-kelasi zamona qo'llanilganda voqeа-hodisalar go'yo o'quvchiga yaqinlashib kelayotganday tuyulib, unda matnga qiziqishni uyg'otadi. Bu arab fe'lining imperfekti keng qamrovga ega bo'lishi va agar ish-harakati tugallanmagan deb tushunilsa, istalgan zamonga tegishli bo'lgan ish-harakatini anglatishi mumkinligi bilan izohlanadi.²

Masalan:

الوزير يطالب بالانتهاء من قطار السلام³

Vazir tinchlik poezdini tugatishni talab qilmoqda

جيش الاحتلال يعتقل عشرات الفلسطينيين في الضفة⁴

Bosqinchi qo'shin G'arbiy qirg'oqda o'nlab falastinliklarni hibsga olmoqda

Ko'rib turganimizdek, bu gaplarda " طلب ب " (n.nidir) talab qilmoq", "hibsga olmoq, qamoqqa olmoq" fe'llarining hozirgi-kelasi zamoni biror-bir vaqt bilan bog'liq emas.

Ayrim hollarda boshqa fe'l shakllarining yuklamalar yoki biror birikmalar bilan qo'llanilishi o'quvchida muayyan ta'sirchanlik kuchini oshiradi.

Masalan:

¹اديب حضور. الخبر الصحف. دمشق. 1972. ص.66.

² Каранг: Гранде Б.М. Курс арабской грамматики в сравнительно – историческом освещении. –М.: Восточная литература, 1998. –С.155-156.

³الأهرام. 17.12.2019. ص. 8
⁴الأهرام. 27.11.2018. ص. 25



سنحرر كل شبر من الأرضي المحتلة⁵

Bosib olingan yerlarning har bir parchasini ozod qilamiz

"قدس": لن نشارك بمعركة مرتبة بادلب⁶

"SDK": *Biz Idlibda bo 'ladigan jangda aslo qatnashmaymiz*

Yoki boshqa gapga e'tibor qarataylik:

مؤتمر القمة العربية أكد من جديد دعم البلاد العربية للشعب العربي الفلسطيني⁷

Arab davlatlari rahbarlari sammiti arab davlatlarining falastin xalqini qo 'llab-quvvatlashini yana bir bor tasdiqladi

Bu gaplarga e'tibor bersak, نحرر "ozod qilamiz" fe'li oldidan kelasi zamon yuklamasining, "ishtirok etmaymiz" fe'li oldidan inkor yuklamasining qo'llanilishi gapdagi ta'sirchanlikni yanada kuchaytiradi. Uchinchi gapda esa أكد "tasdiqladi" o'tgan zamon fe'lining "yana bir bor (so'zma-so'z: yangidan)" ravishdoshi bilan qo'llanilishi tantanavorlik ruhini kasb etadi. Murakab fe'l zamonalari, shuningdek, mayllar sarlavhalarda kam qo'llaniladi. Ayrim holatlarda ularda shart, istak yoki buyruq mayllaridagi fe'llarni uchratishimiz mumkin. "Qoidaga muvofiq, ularning qo'llanilishi uslubiy xarakter kasb etadi."⁸

أيادي مصر لم تتلوث بنقطة دماء⁹

Misr qo 'llari bir tomchi ham qon bilan ifloslanmagan

أعطني سمكة فلا وقت لتعلماني الصيد¹⁰

Menga baliqni ber, ovni o 'rgatishingga vaqting yo 'q

التنازل لن يحدث أبدا¹¹

Inqiroz hech qachon bo 'lmaydi

انتبهوا.. التكنولوجيا تخطف الأطفال¹²

Ehtiyot bo 'ling..texnologiyalar bolalarni o 'g 'irlamoqda

Tahlillarimiz jarayonida shu narsa ma'lum bo'ldiki, arab gazetalarida ikki tarkibli gap – fe'l-kesimli va ismiy gap - an'anaviy tuzilishdagi salavhalar qolgan turdag'i sarlavhalarga nisbatan ko'proq uchrar ekan. Umuman olganda, arab gazetalari sarlavhalari tili – kichkina til materialida katta hajmdagi axborotni bera olish imkoniyatiga ega bo'lgan mikrotuzilmadir.

Foydalanimanligi adabiyotlar:

1. ¹. اديب حضور. الخبر الصحف. دمشق. 1972. ص. 66.

2. ¹. Қаранг: Гранде Б.М. Курс арабской грамматики в сравнительно – историческом освещении. –М.: Восточная литература, 1998. –С.155-156.

3. الأهرام

4. Спиркин А.А. Функционально-стилистическая и структурно-графическая интерпритация арабских газетных заголовков.// Вестник РУДН. – 2008 – Вып.4. – С.57

¹⁵الأئباء. 27.11.2018. ص. 25

¹⁶الاتحاد. 32.11.12. 2019. ص.32.

¹⁷الأهرام. 7. 17.12.2019. ص. 7

⁸ Спиркин А.А. Функционально-стилистическая и структурно-графическая интерпритация арабских газетных заголовков.// Вестник РУДН. – 2008 – Вып.4. – С.57

¹⁹الأهرام. 18.12.2019. ص.25

¹⁰الأهرام. 16. 26.11.2018. ص. 16

¹¹الأهرام. 32. 26.11.2018. ص. 32

¹²الاتحاد 11.12. 2019 ص 16

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА ЗЗ-КҮП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(7-қисм)

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳих: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.10.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000